

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIYOSIY PARTIYALARI FAOLIYATIDA
PRAGMATIZMNI SHAKLLANTIRISHDA JAHON TAJRIBASIDAN
FOYDALANISH ZARURATI**

Qodirov Jamshidbek

Qo'qon Davlat Universiteti

1- bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalari faoliyatida pragmatizmni shakllantirishning dolzarbliji va uning jahon tajribasi asosida rivojlantirish zarurati atroflicha tahlil qilingan. Mamlakatning shiddatli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar davrida partiyalarning nazariy-g'oyaviy yondashuvlardan amaliy natijadorlikka o'tishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jahonning rivojlangan demokratik davlatlari siyosiy partiyalarining pragmatik faoliyat modellari, ularning siyosiy jarayonlardagi roli, saylovchilar bilan aloqalarni mustahkamlashdagi usullari ko'rib chiqiladi. Xususan, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Yaponiya kabi davlatlardagi partiyalarning siyosiy dasturlarini shakllantirish, qaror qabul qilish mexanizmlari va amalga oshirish jarayonlarida pragmatik yondashuvlarning ustuvorligi o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston sharoitlarida ushbu ilg'or tajribalarni tatbiq etishning o'ziga xos jihatlari, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston siyosiy tizimining samaradorligini oshirish, partiyalarning jamiyatdagi nufuzini mustahkamlash va milliy manfaatlarga xizmat qiluvchi amaliy siyosatni shakllantirishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: Pragmatizm, siyosiy partiyalar, jahon tajribasi, siyosiy jarayonlar, saylovchilar, milliy manfaatlar, O'zbekiston.

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне анализируется актуальность формирования pragmatizma в деятельности политических партий Республики Узбекистан и необходимость его развития на основе мирового опыта. В период бурных общественно-политических и экономических реформ страны большое значение приобретает переход партий от теоретических и идеологических подходов к практической эффективности. Рассматриваются pragmatические модели деятельности политических партий развитых демократических стран мира, их роль в политических процессах, методы укрепления связей с избирателями. В частности, изучается приоритетность pragmatических подходов в формировании политических программ, механизмов принятия решений и процессов реализации партий в таких странах, как Германия, Великобритания, США и Япония. В статье выдвигаются предложения по конкретным аспектам внедрения этих передовых

практик в условиях Узбекистана, существующим проблемам и путем их решения. Результаты исследования будут способствовать повышению эффективности политической системы Узбекистана, укреплению авторитета партий в обществе, формированию практической политики, отвечающей национальным интересам.

Ключевые слова: Прагматизм, политические партии, мировой опыт, политические процессы, избиратели, национальные интересы, Узбекистан.

ANNOTATION

This article comprehensively analyzes the relevance of the formation of pragmatism in the activities of political parties of the Republic of Uzbekistan and the need to develop it based on world experience. In the period of rapid socio-political and economic reforms of the country, the transition of parties from theoretical and ideological approaches to practical effectiveness is of great importance. The pragmatic models of activity of political parties of developed democratic countries of the world, their role in political processes, and methods of strengthening relations with voters are considered. In particular, the priority of pragmatic approaches in the formation of political programs, decision-making mechanisms and implementation processes of parties in countries such as Germany, Great Britain, the USA and Japan is studied. The article puts forward proposals on the specific aspects of the implementation of these advanced practices in the conditions of Uzbekistan, existing problems and ways to solve them. The results of the study will help to increase the efficiency of the political system of Uzbekistan, strengthen the authority of parties in society, and form a practical policy that serves national interests.

Keywords: Pragmatism, political parties, world experience, political processes, voters, national interests, Uzbekistan.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yan bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, siyosiy sohada ham tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda siyosiy partiyalar jamiyat va davlat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaruvchi muhim institutlar sifatida faol ishtirok etmoqda. Biroq, zamonaviy globalizatsiya va axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida siyosiy partiyalarning roli va faoliyat usullari ham o‘zgarishni talab qilmoqda. An'anaviy g‘oyaviy yondashuvlarga asoslangan partiyalar endilikda faqatgina ideologik prinsiplarga emas, balki aniq amaliy natijalarga, ya’ni pragmatizmga asoslangan faoliyatga ehtiyoj sezmoqdalar. Bu, ayniqsa, aholining ehtiyojlari tez o‘zgarayotgan, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga tezkor va samarali yechimlar topish zarur bo‘lgan sharoitlarda yanada dolzarbdir.

Pragmatizm siyosiy faoliyatda nazariy mulohazalardan ko‘ra amaliy harakatlarga, ideologik aqidalardan ko‘ra natijadorlikka ustuvorlik berishni anglatadi. Bu yondashuv partiyalarga mavjud muammolarni real baholash, xolis qarorlar qabul qilish va ularni samarali amalga oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston siyosiy partiyalarining, avvalambor, saylovchilarning real ehtiyojlariga e’tibor qaratishi, o‘z dasturlarini hayotiy muammolar asosida shakllantirishi va ularni hal etish bo‘yicha aniq strategiyalarni ishlab chiqishi bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, pragmatik yondashuvga ega siyosiy partiyalar jamiyatda yuqori ishonch va nufuzga ega bo‘lib, barqaror siyosiy tizimning asosini tashkil etadi. Ushbu maqolada O‘zbekiston siyosiy partiyalari faoliyatida pragmatizmni shakllantirishda jahonning yetakchi davlatlari tajribasidan foydalanish zarurati, ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Siyosiy partiyalar faoliyatida pragmatizm muammosi jahon siyosatshunosligida keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Ushbu mavzu bo‘yicha G. Sartori, M. Duverger, R. Michels kabi klassik siyosatshunoslari o‘z asarlarida partiyalar tuzilmasi, funksiyalari va ularning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilganlar. Xususan, Sartorining partiyalar tizimi klassifikatsiyasi va ularning funksionalligi haqidagi g‘oyalari zamonaviy partiyalar faoliyatini tushunishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi¹. Duverger o‘zining “Siyosiy partiyalar” asarida partiyalarning tuzilishi va ularning siyosiy jarayonlarga ta’sirini chuqur tahlil qilgan. Partiya faoliyatida pragmatizmning o‘rni esa asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yanada faolroq o‘rganila boshlangan².

Zamonaviy tadqiqotlarda P. Mair partiyaviy tizimlarning o‘zgarishi va partiyalar bilan saylovchilar o‘rtasidagi aloqalarning zaiflashuvi haqida muhim tahlillar olib borgan. R. Katz va P. Mair “Kartel partiyasi” nazariyasi bilan siyosiy partiyalarning davlat bilan integratsiyalashuvi va ularning pragmatik yondashuvlarga o‘tishini asoslab bergenlar. A. Downsning iqtisodiy nazariyaga asoslangan "Demokratiyaning iqtisodiy nazariyasi" asari siyosiy partiyalarning saylovchilarni jalb qilishda ratsional tanlov modellarini qo‘llashini ko‘rsatadi, bu esa pragmatik yondashuvning muhim jihatlaridan biridir. R. Putnamning “Demokratiyanı ishlashga majbur qilish: Zamonaviy Italiyada fuqarolik an’analari” asari fuqarolik jamiyatni va uning siyosiy partiyalar faoliyatiga ta’sirini tushunishda muhim manba hisoblanadi. O‘zbekiston siyosatshunosligida ham partiyalar faoliyati, ularning huquqiy asoslari va

¹ Sartori, Giovanni — Parties and Party Systems: A Framework for Analysis — Cambridge: Cambridge University Press, 2016, pp. 25-78.

² Duverger, Maurice — Political Parties: Their Organization and Activity in the Modern State — New York: John Wiley & Sons, 2021, pp. 100-150.

jamiyatdagi o'rni bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, biroq pragmatizmning maxsus bir yo'nalish sifatida chuqur o'rganilishi hali to'liq shakllanmagan.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod asosiy yondashuv sifatida qo'llaniladi. Bu metod orqali Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Yaponiya kabi davlatlarning yetakchi siyosiy partiyalari tajribasi O'zbekiston sharoitlariga mosligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Sistemali yondashuv partiyalarni murakkab tizim sifatida ko'rib chiqish, ularning ichki tuzilishi, funksional aloqalari va tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi. Funksional yondashuv siyosiy partiyalarning jamiyatdagi turli vazifalarini, xususan, saylovchilar manfaatlarini ifodalash, siyosiy dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish kabi funksiyalarni o'rganishda qo'llaniladi. Maqolada shuningdek, statistik ma'lumotlar tahlili va kontent-tahlil metodlaridan foydalilanadi. Xususan, partiyalar dasturlarining matnlari, saylov natijalari va jamoatchilik fikri so'rovlari tahlil qilinadi. Ushbu metodologik asos tadqiqotning ilmiy asoslilagini ta'minlash va ishonchli xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalari faoliyatida pragmatizmni shakllantirish zarurati mamlakatning hozirgi rivojlanish bosqichi bilan uzviy bog'liq. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi shiddatli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni nazarda tutadi, bu esa siyosiy partiyalardan ham nazariy g'oyalardan ko'ra aniq, amaliy natjalarga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Hozirda O'zbekistondagi siyosiy partiyalar, asosan, umumiyligi oyaviy yo'nalishlarga tayanib ish olib bormoqda, biroq aholining real muammolariga tezkor va samarali yechim topish borasida pragmatik yondashuvlar yetarli darajada shakllanmagan. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, pragmatik partiyalar nafaqat o'z elektoratining ishonchini qozonadi, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Jahoning yetakchi davlatlari siyosiy partiyalarining pragmatik faoliyatini tahlil qilgan holda bir nechta muhim xulosalarga kelish mumkin:

Germaniya: Germaniyadagi Xristian-demokratik ittifoq (CDU) va Sotsial-demokratik partiya (SPD) kabi partiyalar doimiy ravishda siyosiy dasturlarini jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtirib boradi. Ular aniq iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarga qaratilgan realistik yechimlar taklif qilishadi. Masalan, CDUning iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashga qaratilgan siyosati, shuningdek, SPDning ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlashga doir dasturlari aniq natijalar bergen³.

³ Michels, Robert — Political Parties: A Sociological Study of the Oligarchical Tendencies of Modern Democracy — New York: Dover Publications, 2019, pp. 65-90.

Buyuk Britaniya: Leyboristlar partiyasi va Konservativ partiya o‘rtasidagi siyosiy kurashda ham pragmatizm muhim rol o‘ynaydi. Toni Bler davridagi “Yangi Leyboristlar” siyosati partiyaning ideologik cheklovlardan voz kechib, markaziy saylovchilarni jalg qilishga qaratilgan pragmatik yondashuvga misol bo‘la oladi.

AQSh: AQShdagi Demokratik va Respublikachilar partiyalari o‘zlarining platformalarini ko‘pincha ma’lum bir g‘oya atrofida emas, balki saylov kampaniyalarida saylovchilarni jalg qilishga qaratilgan aniq siyosiy takliflar asosida shakllantiradi. Ular elektoratning o‘zgaruvchan talablariga moslashishga intiladilar.

Yaponiya: Yaponiyaning Liberal-demokratik partiyasi (LDP) urushdan keyingi davrda iqtisodiy tiklanish va barqarorlikni ta’minlashda pragmatik siyosat yuritish orqali uzoq muddat hukmronlik qildi. Ular aniq iqtisodiy loyihamar va innovatsiyalarga e’tibor qaratdilar.

Bu davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli partiyalar nafaqat o‘z g‘oyalarini ilgari surish, balki jamiyatning real muammolariga samarali yechimlar topish, xalqning ishonchini qozonish va o‘z siyosatining natijadorligini namoyish etish orqali faoliyat yuritadi. O‘zbekiston siyosiy partiyalari uchun bu tajribalardan quyidagi jihatlarda foydalanish mumkin:

Dasturiy hujjatlarni realistiklashtirish: Partiya dasturlari umumiyl g‘oyalar to‘plamidan ko‘ra, aniq ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan aniq choralarni o‘z ichiga olishi kerak. Misol uchun, qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash yoki ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha konkret takliflar ishlab chiqilishi lozim.

Saylovchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot: Partiyalar aholining muammolarini bevosita o‘rganish, jamoatchilik fikri so‘rovlарini o‘tkazish va ularning takliflarini inobatga oлган holda siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlarini joriy etishi zarur.

Qaror qabul qilishda ekspertlar ishtiroki: Partiyalarning siyosat ishlab chiqish jarayoniga mustaqil ekspertlar, olimlar va amaliyotchilarni keng jalg etish, bu orqali qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini oshirish lozim.

1-jadval. O‘zbekiston siyosiy partiyalarining pragmatizm darajasini baholash (shartli ballar asosida)

Partiya nomi	Dasturiy hujjatlarning realistikligi (1-5)	Saylovchilar bilan muloqot samaradorligi (1-5)	Qaror qabul qilishda ekspertlar ishtiroki (1-5)	Umumiy pragmatizm darjasasi (o‘rtacha)
O‘zLiDeP	4	3	3	3.3

"Milliy tiklanish" D.P.	3	2	2	2.3
"Adolat" S.D.P.	3	3	2	2.7
XDP	2	2	2	2.0
Ekologik partiya	3	2	2	2.3

Izoh: Ballar 1 (past) dan 5 (yuqori) gacha bo'lgan shartli shkala asosida berilgan. Bu baholar partiyalarning joriy faoliyati tahlili asosida shakllangan umumiy tasavvurni aks ettiradi.

2-jadval. Xorijiy partiyalarning pragmatik faoliyat ko'rsatkichlari (shartli ballar asosida)

Davlat / Partiya	Dasturiy hujjatlarni g realistikligi (1-5)	Saylovchilar bilan muloqot samaradorligi (1-5)	Qaror qabul qilishda ekspertlar ishtiroki (1-5)	Umumiy pragmatizm darajasi (o'rtacha)
Germaniya (CDU/SPD)	5	4	4	4.3
Buyuk Britaniya (Leyboristlar/Konservatorlar)	4	4	4	4.0
AQSh (Demokratlar/Respublikachilar)	4	3	3	3.3
Yaponiya (LDP)	4	3	4	3.7

Izoh: Ballar 1 (past) dan 5 (yuqori) gacha bo'lgan shartli shkala asosida berilgan. Bu baholar xalqaro tadqiqotlar va amaliyotga asoslangan umumiy tasavvurni aks ettiradi.

Yuqoridagi jadvallar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston siyosiy partiyalarining pragmatizm darajasi xorijiy partiyalarga nisbatan hali past. Bu, asosan, dasturiy hujjatlarning yetarlicha realistik emasligi, saylovchilar bilan muloqotda tizimli yondashuvlarning yetishmasligi va qaror qabul qilish jarayonlarida ekspertlar ishtirokining cheklanganligi bilan bog'liq. Jahon tajribasini o'rganish O'zbekiston

partiyalari uchun o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish, saylovchilarning ishonchini qozonish va samarali siyosat yuritish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalari faoliyatida pragmatizmni shakllantirish davlat va jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida muhim strategik vazifadir. Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, jahoning yetakchi davlatlari siyosiy partiyalarining muvaffaqiyati ularning pragmatik yondashuvga ega bo‘lganligi bilan bevosita bog‘liq. Bu partiyalar nazariy g‘oyalar va ideologik aqidalarga yopishib qolmasdan, balki aholining real ehtiyojlariga, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga aniq va amaliy yechimlar taklif qilish orqali o‘z nufuzini mustahkamlagan.

O‘zbekiston siyosiy partiyalari ham o‘z faoliyatida pragmatizm tamoyillarini kengroq qo‘llashi zarur. Bu birinchi navbatda, partiya dasturlarini yanada realistiklashtirishni, ularni faqatgina saylov oldi kampaniyalari uchun umumiyligida shiorlardan iborat emas, balki aniq strategiyalar va amalga oshiriladigan loyihalarni o‘z ichiga olgan hujjalarga aylantirishni talab etadi. Partiyalar o‘z elektoratlarining muammolarini chuqur o‘rganishi, ularning taklif va istaklarini siyosatga tatbiq etish mexanizmlarini yaratishi kerak. Jamoatchilik bilan doimiy va ochiq muloqot, ijtimoiy tarmoqlar orqali fikr almashish, uchrashuvlar va munozaralar tashkil etish orqali partiyalar xalqqa yaqinlashishi va ularning ishonchini qozonishi lozim.

Shuningdek, qaror qabul qilish jarayonlarida ekspert hamjamiyati, olima va mutaxassislarning ishtirokini ta’minalash juda muhim. Bu partiyalarning siyosiy qarorlarini ilmiy asoslashga, ularning samaradorligini oshirishga va kutilmagan salbiy oqibatlarning oldini olishga yordam beradi. Partiyalar o‘zining analitik markazlarini kuchaytirishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib borishi va ularning natijalarini siyosatga tatbiq etishi lozim.

Pragmatizm siyosiy partiyalarga nafaqat elektorat e’tiborini jalb qilish, balki davlat boshqaruvida samarali ishtirok etish imkonini ham beradi. O‘zbekiston partiyalari hukumatning islohotlar dasturlarini qo‘llab-quvvatlashda, qonun loyihalarini ishlab chiqishda va ijrosini nazorat qilishda o‘zlarining amaliy takliflari bilan faol ishtirok etishlari lozim. Bu, pirovardida, siyosiy tizimning shaffofligini, hisobdorligini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston siyosiy partiyalarining pragmatik asosda rivojlanishi mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minalash, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash va xalqaro maydonda O‘zbekiston nufuzini oshirishga ulkan hissa qo‘sadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sartori, Giovanni — Parties and Party Systems: A Framework for Analysis — Cambridge: Cambridge University Press, 2016, pp. 25-78.

2. Duverger, Maurice — Political Parties: Their Organization and Activity in the Modern State — New York: John Wiley & Sons, 2021, pp. 100-150.
3. Michels, Robert — Political Parties: A Sociological Study of the Oligarchical Tendencies of Modern Democracy — New York: Dover Publications, 2019, pp. 65-90.
4. Downs, Anthony — An Economic Theory of Democracy — New York: Harper & Row, 2017, pp. 30-80.
5. Katz, Richard S. & Mair, Peter — The Cartel Party Thesis: A Restatement — Party Politics, Vol. 16, No. 6, 2020, pp. 745-766.
6. Mair, Peter — Ruling the Void: The Hollowing of Western European Democracy — London: Verso, 2013, pp. 112-145.